

MA'LUMOTNOMA № 79 (18 07 2025-yil)

Buxoro davlat universiteti San'atshunoslik va pedagogika fakulteti
1-bosqich 24 -guruh talabasi shamsiyeva Maftuna
Alisher qizi ning 2024/2025-o'quv yilida akademik o'zlashtirish
to'g'risida.

Berildi ushbu ma'lumotnoma shu haqdaki, 2024/2025-o'quv yilida talaba
shamsiyeva Maftuna Alisher qizi ning GPA
ko'rsatkichi 4.10 bo'lganligi uchun 7.0 ball bilan baholandi.

O'quv-uslubiy departament boshlig'i



S.Davlatov

Buxoro davlat universiteti
San'atshunoslik va pedagogika fakulteti
12-1MAD24 guruh talabasi
Shamsiyeva Maftuna
Bayonnomasi.

Joriy yilning 9-aprel kuni San'atshunoslik va pedagogika fakulteti 1-bosqich talabalari bilan o'quv ishlari bo'yicha prorektor R.G'.Jumayev boshchiligida seminar-trening tashkil etildi. Buxoro davlat universitetida 2024/2025 o'quv yiliga qabul qilingan talabalarga Vazirlar Mahkamasining "Oliy ta'lim tashkilotlarida talabalarga grantlarni taqdim etish va qayta taqsimlash tartibi to'g'risida"gi nizomni tasdiqlash haqida 2025-yil 10-martdagi 149-sonli qarori mazmun-mohiyati tushuntirib o'tildi. "Oliy ta'lim tashkilotlarida ta'lim grantini qayta taqsimlash sxemasi", "Ijtimoiy faollikni aniqlash bo'yicha baholash mezonlari" talabalarga batafsil tushuntirilib, har bir yoshning ushbu jarayonda faol ishtirok etishi muhimligi alohida ta'kidlandi.



Buxoro davlat universiteti
San'atshunoslik va pedagogika fakulteti
12-1MAD24 guruh talabasi
Shamsiyeva Maftunaning Bayonnomasi
12.09.2024

San'atshunoslik va pedagogika fakulteti 1-bosqich talabalari tyutor Lyubov Kamilova boshchiligida Abu Ali Ibn Sino nomidagi kutubxonaga tashrif buyurishdi. Tashrif davomida talabalar buyuk alloma Abu Ali Ibn Sinoning hayoti, ilmiy merosi va tibbiyot sohasidagi ulkan yutuqlari haqida batafsil ma'lumotlarga ega bo'lishdi. Kutubxona xodimlari tomonidan Ibn Sinoning mashhur asarlari, jumladan "Tib qonunlari" ("Al-Qonun fi't-Tibb") kitobi va boshqa ilmiy ishlanmalari haqida tushunchalar berildi.

Talabalar kutubxonadagi nodir qo'lyozmalar, eski nashrlar bilan tanishib, ilmiy izlanishlar olib borish imkoniyatlariga ega bo'lishdi. Bundan tashqari, talabalar o'zlarini qiziqtirgan savollar bilan chiqishdi va kutubxona xodimlari tomonidan savollarga atroflicha javoblar berildi.



Buxoro davlat universiteti
San'atshunoslik va pedagogika fakulteti
12-1MAD24 guruh talabasi
Shamsiyeva Maftunaning
Bayonnomasi.

San'atshunoslik va pedagogika fakulteti tyutori L.A. Kamilova tomonidan 3-tashabbus doirasida 12-1mad-24 guruhi talabalari bilan darsdan keyingi bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida trening o'tkazildi. Treningda talabalar uchun "Internetdan samarali foydalanish texnologiyalari" mavzusida taqdimot o'tkazilib, internet tarmoqlaridan to'g'ri foydalanish, taqiqlangan saytlarga kirmaslik, elektron kutubxona va qo'llanmalardan unumli foydalanish hamda slaydlar tayyorlash jarayoni batafsil tushuntirildi va amaliy ko'rsatmalar berildi.



Buxoro davlat universiteti
San'atshunoslik va pedagogika fakulteti
12-1MAD24 guruh talabasi
Shamsiyeva Maftunaning Bayonnomasi

2024-yil 12-dekabr kuni "Madaniy tadbirlarni tashkil etish" fanidan ochiq dars bo'lib o'tdi. Darsda guruhimiz talabalari faol ishtirok etishdi. Ochiq darsni o'qituvchi O'rinov Shamshod olib bordi va u madaniy tadbirlarning jamiyat hayotidagi o'rnini, ularni to'g'ri tashkil etish metodikasi, sahnalashtirish bosqichlari, ishtirokchilarni tanlash hamda madaniy merosga asoslangan mavzularni tanlash borasida keng tushunchalar berdi.

Dars davomida talabalar kichik guruhlariga bo'linib, o'zlari mustaqil tarzda kichik sahna ko'rinishlari tayyorlashdi. Har bir guruh o'z ijodiy yondashuvi orqali madaniy tadbirlarning amaliy jihatlarini namoyish etdi.

